cultural diversity for generations to come, not a place where one's favorite people or places are at risk.

References

1 Brundtland G. H. Our Common Future: Report of the World Commission on Environment and Development. – Oxford : Oxford University Press, 1987. – 400 p.

2 Lenzen M., Sun Y.-Y., Faturay F., Ting Y.-P., Geschke A., Malik A. The carbon footprint of global tourism // Nature Climate Change. – 2018. – Vol. 8. – P. 522–528.

3 UNWTO, UNEP. Making Tourism More Sustainable: A Guide for Policy Makers. – Madrid : World Tourism Organization, 2005. – 222 p.

4 UN Tourism. World Tourism Barometer. – Madrid : UN Tourism, 2024.

5 Milano C., Cheer J. M., Novelli M. (eds.) Overtourism: Excesses, Discontents and Measures in Travel and Tourism. – Wallingford : CABI, 2019. – 248 p.

6 Global Sustainable Tourism Council. GSTC Destination Criteria. Version 2.0. – 2019.

7 World Travel & Tourism Council. Economic Impact Research. – London : WTTC, 2024.

8 Gössling S., Higham J. The low-carbon imperative: destination management under urgent climate change // Journal of Travel Research. – 2021. – Vol. 60, No. 6. – P. 1167–1179.

O‘ZBEKISTONNING TURIZM IMKONIYATLARI

Umarova Gulandom Tumanovna
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi dots. v.b.
e-mail.gulandom.u1983@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizm va ushbu sohaning rivojlanishi, davlat iqtisodiyotining muhim hamda ustuvor tarkibiy qismi shu bilan birgalikda xorij valyutasining mamlakatga kirib kelishini ta’minlaydigan asosiy manba ekanligi to‘g‘risida fikrlar bildirilgan. O‘zbekistonda bu sohada olib borilgan va borilayotgan sayi harakatlar tahlil qilingan. O‘zbekistonning turistik jozibadorligi, mamlakatdagi nodir tarixiy yodgorliklar va ulug‘vor hamda betakror arxitektura namunalari borasida ma’lumotlar keltirildi. Respublikadagi bu sohani rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar hamda ko‘zga tashlanadigan kamchiliklar o‘rganib chiqilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: turizm, barqaror o‘sish, mintaqalar turizmi, turistik salohiyat, turistik yo‘nalish, bandlik, tarixiy yodgorliklar, sayohat, tarkibiy o‘zgarishlar, diversifikatsiya, kompleks rivojlanish.

Turizm - ushbu tushunchaga ilmiy adabiyotlarda odamlarning bo‘sh vaqtlarida o‘z doimiy turar joylaridan boshqa mamlakat yoki o‘z mamlakatlari ichida ta’ssurot va dam olish, sog‘liqni tiklash, mehmondorchilik, bilim olish yoki

kasbiy amaliy maqsadlarda sayohat qilishlaridir, ammo borgan joylarida pul bilan rag‘batlantiriladigan ish bilan shug‘ullanmaydilar”[123] deya ta’rif berilgan. Va bu ko‘pchilik davlatlar vizalarida, ya’ni mazkur davlatga kirishga ruxsat beruvchi hujjatda ham ko‘rsatilgan. Masalan, Avstraliya vizasida “Xaq to‘lanadigan ish yoki o‘qish xuquqi berilmaydi” degan qat’iy yozuv mavjud[124]. Turistlarni ishga jalb etilishi mumkin bo‘lmasada, bu sohaning rivojlanishi natijasida hududagi aholi bandligini diversifikatsiyalash, aholi turmush darajasini oshirish mumkin. Chunki, turizm o‘zining ko‘p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta’sir o‘tkazadi, iqtisodiyotning ko‘pgina jabhalarini rivojlantirishga imkon tug‘diradi. Jumladan, transport tarmoqlari, aloqa, yo‘l qurilishi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalari, kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish, servis sohasi, savdo tarmoqlari va h.k. Shuningdek, turizmni rivojlantirish bir vaqtning o‘zida o‘ziga xos dam olish, hordiq chiqarish, ko‘ngil ochar maskanlar industriyasini tashkil etib, o‘z o‘rnida sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bir qator sohalarni ham qamrab oladi. Aksariyat davlatlarda turizm iqtisodiyotining muhim hamda ustuvor tarkibiy qismi sanalib, mahalliy aholining ish bilan bandligi, mehmonxonalar, restoran va tomoshagohlarning to‘liq ishlashi, xorij valyutasining mamlakatga kirib kelishini ta’minlaydi. Shu bois, ko‘plab mamlakatlar turizm sohasiga katta e’tibor bilan qaraydilar. Masalan, Fransiyada bu sohaga juda katta e’tibor qaratiladi. Xatto hukumat yig‘ilishlari vaqtida turizm vaziri bosh vazirning o‘ng tomonidan joy olar ekan. Ushbu davlatning Yevropadagi birinchi raqamli turistik hudud ekanligi va Parij shahrining turizm hisobiga yashab, “Turistik Makka” deb nom olishi boshqa mamlakatlar havas qilsa arzigulik holdir. Meksika prezidenti esa yirik xalqaro turistik ko‘rgazmalarni shaxsan o‘zi ochib berar ekan. Bunday misollarni yana ko‘plab davom ettirish mumkin. Turizmning ichki iqtisodiy tabiati shuni ko‘zda tutadiki, turist albatta o‘z pullarini mazkur davlatda qoldirishi kerak. Turizm mahalliy turistik resurslarni ekspluatatsiya qilishga va buning evaziga davlatning foyda olishiga asoslanadi.

Respublikada ham turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishni ta’minlashga, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, uni mamlakat iqtisodiyotini barqaror o‘stirish, mintaqalarda turizm salohiyatidan samarali foydalanish, aholi turmush darajasi va sifatini oshirishdagi rolini kuchaytirishning qudratli vositasiga aylantirishga O‘zbekistonning turizm sohasidagi ijobiy qiyofasini yuqori darajaga ko‘tarishga, bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekistonning jozibador turizm markazi sifatidagi ijobiy qiyofasini shakllantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu soha iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishi sifatida talqin qilinib, unga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Turizm sohasining rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilib, hukumat tomonidan tegishli me’yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu boradagi ishlar uzluksiz davom ettirilmoqda.

[123] Zorin I.V., Kvartalnov V.A. **(**2003**)** *Ensklopediya turizma.* st. 25
[124] Mirzaev M.A. va boshqalar (2011) *Turizm asoslari*. 18 b.

Mamlakatda O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan sayohat qilish turiga qarab turistik yo‘nalishlar ishlab chiqilgan. Bular:

- *ekolgik turizm yo‘nalishi* (Chimyon, Chorvoq dam olish va davolanish oromgohi, Zomin qo‘riqxonasi, Buxoro viloyatidagi qo‘riqxonalar). Bu yo‘nalish alohida muhofaza kilinadigan tabiiy hududlar va sayyohlar uchun ekologik jihatdan qulay hamda foydali hisoblanadigan joylarga tashrif bilan bog‘liq;
- *arxeologik turizm yo‘nalishi* (Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo, Samarqand hududlari bo‘ylab). Bu yo‘nalish O‘zbekistonning eng qadimgi topilmalari va arxeologik qazishmalar olib borilayotgan joylari bilan tanishishni maqsad qilib qo‘yadi;
- *ekstremal turizm yo‘nalishi* (Chimyon, Farg‘ona vodiysi, Orol bo‘yi, Buxoro, Navoiy viloyati hududlari bo‘ylab);
- *diniy (ziyorat) turizm yo‘nalishi* (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Toshkent) - mamlakatimizdagi tarixiy diniy obidalarni ziyorat qilish bilan bog‘liq.

Respublikada turizm sohasini rivojlantirish uchun imkoniyatlarning mavjud bo‘lishi bilan birgalikda, bir qancha kamchiliklar ham uchrab turadi.

Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- masofaviy marketing konsepsiyasidan foydalanishni yo‘lga qo‘yish,
- turistlarni hududdagi mavjud mehmonxonalar ularning turistik ob’ektdan uzoq yoki yaqinligi bilan tanishtirish,
- servis xizmatlar, kommunikatsiya va transport tizimini yaxshilash,
- turistlarni o‘zlarini qiziqtirgan ma’lumotlarga ega bo‘lishlarini ta’minlash maqsadida sohada zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni faol qo‘llash.

Mazkur masalalarning hal etilishi turistlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati, hududga kelayotgan turistlar sonining oshishida va hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarning hisob kitoblariga ko‘ra har 30 nafar sayyoh mamlakat turizimi sohasida, 1 ta unga turdosh sohalarda esa 2 ta ish o‘rinlarini yaratadi. Turistlar oqimining ko‘payishi mamlakatning jahon mamlakatlari orasida yanada tanilishiga, mamlakatga valyuta tushimining oshishiga, yangi ish o‘rinlari tashkil etish ko‘rsatkichlarining o‘sishi, aholining ish bilan ta’minlashga oid davlat va hududiy dasturlarning ijro etilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Turistik faoliyatda mahalliy aholining ishtirok etishi va undan daromad olishlari ularda iqtisodiy rag‘batni oshirish bilan birga tabiat muhofazasi, iqtisodiy samara uchun katta yordam berib qolmasdan sayohatchilar tashrif buyurgan hududlarda barqaror rivojlanishga o‘zining katta hissasini qo‘shadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda turizm uchta yetakchi sohalar qatoriga kiritiladi. Chunki, turizm tez sur’atlarda rivojlanadi va muhim ijtimoiy hamda iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ya’ni turizim:

- ✓ mahalliy daromadni o‘stiradi;
- ✓ yangi ish o‘rinlarini yaratadi;
- ✓ ishlab chiqarishning turistik xizmatlar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha sohalarini rivojlantiradi;

✓ turistik markazlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasini rivojlantiradi;
✓ xalq hunarmandchiligi markazlari faoliyatining rivojlanishini tezlashtiradi;
✓ mahalliy aholi yashash darajasining o‘sishini ta’minlaydi;
✓ valyuta tushumlari miqdorining o‘sishiga yordam beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, turizm sohasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining kuchli katalizatori bo‘lib, chet el valyutasi va sarmoyalari oqimini ta’minlaydi, unga yaqin bo‘lgan sohalarning tez o‘sishiga ko‘mak beradi va mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi obro‘ini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘rsidagi” Qonuni. Toshkent sh., 2019-yil 28-iyul, O‘RQ-549-son www.Lex. uz,
2. Babkin, A. V. (2008). *Spetsial’nye vidy turizma*. Rostov-na-Donu: Feniks.
3. Gulyamova, G. P. (2019). Turizm klasterining institutsional muhiti. *Iqtisod moliya*, 11(131).
4. Hayitboyev, R., & Matyaqubov, U. (2010). *Ekologik turizm* (uslubiy qo‘llanma). Samarqand.
5. Mirzayev, M. A., & Aliyeva, M. T. (2011). *Turizm asoslari* (o‘quv qo‘llanma). Toshkent.
6. Zorin, I. V., & Kvartalnov, V. A. (2003). *Entsiklopediya turizma: Ekonomika turizma*. Moskva: Finansy i statistika.

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING GASTRONOMY TOURISM IN UZBEKISTAN

Pardaboyeva Feruza Maxmud qizi, Muxtarova Xumora G‘ayrat qizi
Students of Silk road International University of Tourism and Cultural Heritage
Email: Pardaboyevaferuza695@gmail.com, xumorabaydullayeva02@gmail.com

Abstract. Gastronomy tourism is one of the important sectors of the modern tourism. Many tourists come to taste local dishes and find new flavors. Food is one of the basic human needs and gastronomic experiences can be an important motivation for travel. The article is devoted to the opportunities for the development of gastronomy tourism in Uzbekistan and its importance for the tourism sector. Uzbekistan has a great potential for gastronomic tourism due to the rich national cuisine and gastronomic traditions. The research examines the possibility of creating gastronomic tours, festivals, master classes on cooking, and promotion of traditional national dishes. The development of gastronomy tourism can increase the tourist attractiveness of Uzbekistan, promote national culture and contribute to the development of the local economy.